

Buxoro muxandislik-texnologiya instituti

**5150908 — "Dizayn (poyabzal va
aksesuarlar dizayni)" ta'lim yo'nalishiga
hujjat topshirgan abituriientlar uchun
ijodiy imtihon boyicha amaliy
maslaxatlar (konsultatsiya)**

5150908 — "Dizayn (poyabzal va aksessuarlar dizayni)" ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon dasturi O'rta maxsus va kasb-hunar kollejlaridagi dizayn fani dasturi asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

5150908 — "Dizayn (poyabzal va aksessuarlar dizayni)" ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar ijodiy imtihonda "Kompozitsiya" fanidan amaliy ish bajaradilar. Bajarilgan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

KOMPOZITSIYA (лот. compositio — tuzilish, birlashish, bog'lanish) — badiiy asarning mazmunan, xarakteri va maqsadi jihatidan bog'langan qismlarining joylashishi ma'nolarini anglatadi.

"Kompozitsiya" fani bo'yicha:

Imtihonda abituriientlar tomonidan turli texnikada (akvarel, grafika, kollaj, planshet, applikatsiya va b.) abituriient tanlangan mavzu bo'yicha kompozitsiyani 160 daqiqa mobaynida bajaradi.

Kompozitsiya muhrlangan formatdagi qog'ozda bajariladi. Har bir abituriientning kompozitsiya ishlari bitgandan so'ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash mezonini bo'yicha baholanadi.

IJODIY IMTIHONNI TASHKIL ETISHDAGI UMUMIY TALABLAR:

- 1. Kompozitsiya bo'yicha imtihon maxsus jihozlangan hududda o'tkaziladi;**
- 2. Imtihon jarayonlariga abituriyentning harorati tekshirilib so'ngra dezinfeksiya qilingan hududga guruh nazoratchisi hamroxligida kuzatiladi;**
- 3. Yuz niqobi hamda bir martalik tibbiyot qo'lqoplarida bo'lishligi lozim;**
- 4. Maxsus hududda abituriyentlar bir-biridan kamida 2 metr masofa oralig'ida joylashtiriladi (hududga kirishdan avval abituriyent raqam olib mazkur raqamdagi stolga borib joylashadi);**
- 5. Abituriyent amaliy ishni bajarishi uchun qabul komissiyasi tomonidan muhrlangan qog'oz beriladi. Har bir abituriyentga imtihon varaqasi rasmiylashtiriladi;**
- 6. Imtihonda qatnashishga imtihon varaqasi va pasport asosida ruxsat beriladi. Imtihonga begona shaxslarning kirishiga yo'l qo'yilmaydi;**
- 7. Vazifalarni berish, ishni bajarish oldidan imtihon oluvchining bajariladigan ish tartibini tushuntirishi, titul varaqasini to'ldirish kabilar ushbu ishni bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt reglamentiga kiradi;**
- 8. Maxsus hududda abituriyentlar bilet tanlash asosida bir mavzu tanlaydilar va tanlangan mavzu asosida ijodiy ishni bajaradilar.**

Ijodiy imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur jihozlarga ega bo'lishi kerak:

- har xil yumshoqlikda grafit va rangli, uchi o'tkirlangan qalamlarga;
- avtomat tarzda ishlaydigan 0,5 va 0,7 mm qalinlikdagi grifellarga ega qalamlar (dozatorlar);
- yumshoq o'chirg'ich;
- qalam yo'nish uchun ochqich yoki scalpel;
- kompozitsiyani rangda bajarish uchun akvarel, guash bo'yoqlari, mo'y qalam, geleviy ruchkalar va suv uchun idish.

Quyidagilarga ruxsat etilmaydi:

- moy bo'yoq asosidagi bo'yoqlar va uzoq vaqtni (15 minutdan o'tiq) talab etadigan bo'yoqlar;
- maxsus qotish jarayonini talab qiladigan pastel va chizilgan kompozitsiya yengil o'chib ketadigan badiiy materiallardan foydalanish;
- abituriyentlarga bajargan ishiga imzo, biror bir belgi qo'yish va suratga olish qat'iyan taqiqlanadi.

**Mazkur qoidalarga abituriientlar tomonidan
amal qilmaslik imtihon tartiblarini buzgan
hisoblanadi va fan bo'yicha imtihon
komissiyasi raisi hamda guruh
nazoratchilari tomonidan dalolatnoma
tuzilib chetlashtiriladi.**